

MAQOLLARNING MAVZUIY GURUHLARI VA ULARDA KONNOTATSIYANING IFODALANISHI

Muxammedova Sumbul Ikrombek qizi
sumbulmuxammedova0304@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada maqollarning kelib chiqishi, o‘rganilishi masalasi, mavzu doirasida qilingan ilmiy izlanishlar haqida ma’lumotlar keltirilgan, shuningdek, maqollarda konnotativ va denotativ ma’no, konnotatsiyani yuzaga chiqaruvchi omillar haqida bayon qilingan, shuningdek, o‘zbek xalq maqollarning mavzuiy guruhlarida konnotatsiya hodisasi misollar orqali tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: maqollar, DLT, konnottiv ma’no, denotativ ma’no, tasnif.

ТЕМАТИЧЕСКИЕ ГРУППЫ ПОСЛОВИЦ И ВЫРАЖЕНИЕ СМЫСЛОВОГО СОДЕРЖАНИЯ В НИХ

Мухаммедова Сумбул Икромбек кизи
sumbulmuxammedova0304@mail.ru

Аннотация. В данной статье представлена информация о происхождении и изучении пословиц, научных исследованиях, проводимых в рамках данной темы, о коннотативном и денотативном значениях пословиц, а также о факторах, создающих коннотацию. Также на примерах анализируется феномен коннотации в тематических группах узбекских народных пословиц.

Ключевые слова: пословицы, ДЛТ, коннотативное значение, денотативное значение, классификация.

THEMATIC GROUPS OF PROVERBS AND THE EXPRESSION OF CONNODATION IN THEM

Muxammedova Sumbul Ikrombek qizi
sumbulmuxammedova0304@mail.ru

Annotation. This article provides information on the origin and study of proverbs, scientific research conducted within this topic, as well as the connotative and denotative meaning of proverbs, and the factors that create connotation. Also, the phenomenon of connotation in the thematic groups of Uzbek proverbs is analyzed through examples.

Key words: proverb, DLT, connotative meaning, denotative meaning, classification.

O‘zbek xalq maqollariga ilmiy munosabat shakllarini qomusiy olim M.Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida ko‘rish mumkin. M.Koshg‘ariy ushbu asarda keltirilgan maqollarning filologik, tarixiy, etnografik xususiyatlarini keng va atroflicha tasvirlagan.

Maqollarning sintaktik tabiatini tilshunos X.Abdurahmonovning dissertatsiyasi tadqiqi predmeti bo‘ldi. Tilshunos olim maqollarning sintaktik xususiyatlari masalasida qo‘lga kiritgan yutuqlari va tajribalari asosida, umuman, maqollardagi variantlilik, bu variantlilikning hududiy va shevaviy, tarixiy va zamonaviy ko‘rinishlariga xos leksik o‘ziga xosliklari tilshunos M.Sadriddinova tadqiqotlarida o‘z yechimi va tavsifiga ega¹.

O‘zbek xalq maqollarini majmua va xrestomatiyalarga kiritish, tartiblash, ulardan maxsus to‘plamlar tuzish ishlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Shunga qaramay, ular materialning hajmi, mavzularga ajratilishi, tanlanishi jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Masalan, M.Afzalov boshchiligidagi tayyorlangan to‘plamning keyingi nashriga 2500 dan ortiq maqol 34 mavzuga ajratilgan bo‘lib, R.Jumaniyozov to‘plamining so‘nggi nashrida 1047 maqol 22 mavzuda jamlangan.

2009, 2012, 2013- yillarda T.Mirzayev tomonidan “O‘zbek xalq maqollari” to‘planib, “Sharq” nashriyotida chop etildi. Bu to‘plamlarda maqollar xilma-xil mavzularga ajratilgan holda berilgan.

Insoniyat tomonidan yaratilgan maqollarning mavzu yo‘nalishlari keng va rang-barangdir. Maqollarni to‘plib, nashr ettirganlarning har biri ularni o‘zicha tasnif qilgan, guruhlarga ajratgan. Natijada, tasniflarning bir necha turi vujudga kelgan. Quyida ana shunday tasniflarning ayrim guruhlariga e’tibor qaratamiz:

1. *Alifbo tartibi*. Bunda maqollar odatdagagi alifbolarning harfiy jadvallariga asosan tartiblashtiriladi.

2. *Maqoldagi asosiy so‘zga qarab tasnif etish tartibi*. Bunday tartibblashtirishni leksik yoki qomusiy tasnif deb ham atash hollari mavjud.

3. *Tematik tasnif*. Mazkur maqollar tasnifi eng keng yoyilgan tasniflardan biri bo‘lib, ularda maqolning mazmuniy yo‘nalishi asos qilib olinadi.

V.I.Dal: “Maqollar ulardan anglashiladigan tushunchalarga qarab joylashtirilsa, xalq ruhiyatining chinakam ocherki vujudga keladi”, – deb yozgan edi. Demak, maqollarni tasniflash uchun ulardan anglashilgan tushunchalar asos qilib olinsa, tasnifga to‘g‘ri yondashilgan bo‘ladi.

¹ Турдиалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – Б.43.

. Ikki jildlik “O‘zbek xalq maqollar”¹ akademik to‘plamida maqollar alifbo tartibida berilgan. “Alfavitli tasnif” to‘plamda “Balandparvoz so‘zlar”² deb qabul qilingan. Tuzuvchilar Sh.Shomaqsudov va Sh.Shoraxmedovlar o‘zlarining “Ma’nolar maxzani”³ to‘plamida ham maqollarni alifbo tartibida joylashtirganlar. To‘plam 20 ming maqolni o‘z ichiga oladi. Unda maqollarning etimologiyasi va muqobilari keltirilgan.

Maqollarda ziddiyat va qarama qarshilik motivlari keng qo‘llanilganligi sababli maqollarni mavzuiy tasnif etishda har bir timsolning ijobiy yoki salbiy jihatlarini teng hisobga oladi. Masalan, *yaxshilik* bilan *yomonlik*, *do’stlik* va *dushmanlik*, *mehnatsevarlik* va *dangasalik* kabi mavzular. Mehnat va mehnatsevarlik yo‘nalishidagi maqollarda ziddiyat, asosan, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, harakatchanlik va kam harakatlilik kabi holatlar o‘rtasida kechadi.

Quyida ana shu mavzu yo‘nalishidagi maqollardan namunalar keltiramiz.

1. *Yotgan yotag ‘on bo ‘lar,*

Sovuqqa qatog ‘on bo ‘lar.

2. *Dangasaning ishi bitmas,*

Yoz kelsa ham qishi bitmas.

3. *Gap desang, qop-qop,*

Ish desang, Ashtarxonidan top.

4. *Yer boylikning onasi bo ‘lsa,*

Otasi — mehnat.

5. *Ish desa, og ‘rir oshiq-moshig ‘im,*

Osh desa, tayyor katta qoshig ‘im.

6. *Ishi borga bir kun hayit,*

Ishi yo‘qqa har kun hayit.

7. *Mehnat kishini boqar,*

Yalqovlik o ‘tga yoqar.

8. *Ter to ‘kib sochsang urug’, yer seni qo ‘ymas quruq.*

O‘zbek xalq maqollarini o‘rganish va tekshirish jarayonlari shuni ko‘rsatadiki, maqollarimizda mehnat va mehnatsevarlik, mehnat qilishga undash, ishyoqmas va dangasa bo‘lmaslikka da’vat qilish motivlari eng yuqori o‘rinni egallaydi. Albatta, bunday yo‘nalishidagi maqollarda konnotativ semantika ham muhim o‘rinni egallaydi.

Maqollarda mehnat qilish, ishlashga yo‘naltirish kabi murojaatlarda to‘g‘ridan tog‘ri barcha kishilarga qaratishdan qochiladi va o‘zbekona muomala madaniyatni,

¹O‘zbek xalq maqollar. – Toshkent, 1987. – B.27-30.

²Sarimsoqov B. “Balandparvoz so‘zlar”. – Toshkent, 1986. – B.38.

³Shomaqsudov Sh. ,Shoraxmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent, 2001. – B.43.

birovning dilini og'ritib qo'ymaslik kabi murojaat shakllari mehnat va mehnatsevarlikka yo'naltirilgan maqollarda, ayniqsa, kuchliroq ifodasini topadi. Buning natijasida ham konnotativ ma'nolardagi leksik vositalardan foydalanish yetakchi o'ringa ko'tariladi. Ya'ni, biror bir shaxsga to'g'ridan to'g'ri fikrni yo'naltirmasdan, unga yotig'i bilan boshqa timsollar vositasida, ana shu tarbiya vositasi bo'lmish maqol mazmunini yetkazishga erishiladi.

Masalan, *Yotgan yotag'on bo'lar, Sovuqqa qatog'on bo'lar*. Ushbu maqolning izohini quyidagicha sharhlash mumkin. Yotgan, ya'ni ishyoqmas, dangasa odam butun yoz bo'yli ishlamay yotaveradi, qishlik ro'zg'orini, yegulik, kiygulik narsalarni, yoqilg'ini, mollarining yem-xashagi va shu kabilarni hozirlamaydi-da, qish bo'yli qiynalib, sovuq qotib, qaltirab yuradi. Oxir oqibat ochlikda, muhtojlikda, hatto qishda qalin usti-bosh ololmaganidan sovuq qotadi. Maqol orqali inson dangasa bo'lsa, unga hech kim yordam bermasligi va doim muhtojlikda kun ko'rishi mumkinligi to'g'risida nasihat berilgan.

Ya'ni ishyoqmas kishilarning bevosita o'ziga buyruq ohangida aytilmayapti, agar beg'am, beparvo yuraversa, qishda qiynalib qolishidan ogohlantirilayapti. Ushbu maqolda ishlatilgan "sovuj" "qatog'on bo'lmoq" birliklari konnotatsiya hodisasiga moslashgan birliklar sifatida baholanishi mumkin.

Mehnat kishini boqar, Yalqovlik o'tga yoqar. Odatda, maqolar mazmunan barchaga, umumga qaratilgan bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, mehnatsevarlik yo'nalishidagi maqollarda ham bu jihat bo'rtib turadi. Keltirilayotgan maqolning mazmunidan ham umumga qaratilganlik anglashilib turibdi. Maqolning mazmunidan: qaysi kishiki, mehnat qilsa, ter to'ksa u hech qachon och qolmasligi, hamisha oziqlari g'amlangan bo'lishi haqida ijobiy ottenkadagi fikr keltiriladi va unga qarama-qarshi fikr sifatida esa, ishyoqmas, yalqov odamning hech qachon bunday huzur-halovatga erisha olmasligi haqida ogohlantiriladi.

Yuqorida keltirilgan (*Yotgan yotag'on bo'lar, Sovuqqa qatog'on bo'lar*) maqolda bunday ikki qarama-qarshi ziddiyatli tomonlar tilga olinmagan, ibrat mazmuni bitta vositaning o'zida mujassam etilgan bo'lsa, keyingi maqolda ziddiyatli qutblar ikki vosita yordamida ifodalangan va tinglovchiga shu tarzda qiyoslash, solishtirish orqali maslahat berilayotganini kuzatishimiz mumkin.

"*Mehnat kishini boqar, Yalqovlik o'tga yoqar*" maqolidagi "o'tga yoqmoq" birkmasi o'zining haqiqiy ma'nosidan ancha yiroq bo'lib, konnotativ ma'no ifodalashga moslashgan. Shunki, o'tga yoqmoq haqiqiy ma'noda olovda kuyish, yong'in qurban ni bo'lish kabilarni ifodalashi lozim edi. Keltirilgan o'rinda esa, bu jihat, ya'ni "o'tga yoqmoq" faqat ramziy, simvolik ma'nolardagina keltirilmoqda.

Mehnat va mehnatsevarlik mavzuyidagi maqollarda xalqimizning diniy e'tiqodlari, urf-odat va qadriyatlari bilan bog'liq tushunchalar orqali ham mehnat tarbiyasiga erishish motivlarini ham kuzatishimiz mumkin. Ana shu xarakterdagi bir necha maqollarni keltiramiz: "*Ishi borga bir kun hayit, Ishi yo'qqa har kun hayit*", "*Tek turganga shayton tayoq tutqazar*" va boshqalar shular jumlasidandir.

O'zbek xalq maqollarining deyarli har bir mavzu guruhini diniy qadriyatlarimiz bilan bog'liq bo'lgan maqollarsiz tasavvur qilish mumki emas. Shu qatorda sabr-qanoat va matonat mavzuiy yo'nalishiga mansub maqollarda ham ana shu toifadagi maqollar mavjud. Jumladan, "*Sabr tagi – rahmon, Shoshgan ishi – shayton*" yoki "*O'ttiz kun ro'zaning bir kun hayiti bor*" kabilar. Keltirilgan maqollarning leksik tarkibida xalqimizning diniy qarashlariga aloqador bir qancha so'zlar ishtirok etgan. Masalan, dastlabki maqoldagi "rahmon", "shayton" yoki keyingi maqoldagi "ro'za" va "hayit" so'zlarini ana shunday so'zlar qatoriga kiritish mumkin.

Yuqorida keltirilgan diniy qadriyatlarimizga aloqador maqollar tarkibidagi "rahmon" va "shayton", shuningdek, "o'ttiz kun ro'zaning mashaqqati, sinovi" va "hayit bayrami huzur-halovatlari" bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi orqali kishilarni sabr-qanoatli bo'lish, qiyinchiliklarga bardoshli bo'lishga undash kabi konnotativ ma'nolar ifodalangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalq maqollari turmushning qaysi jabhasiga yo'naltirilganligi bilan 30 dan ortiq mavzuiy guruhlarga ajralishi mumkin. Ana shu guruhlarda konnotativ jihatdan 'ziga xos ifodalarga xizmat qiluvchi leksik, grammatik va sintaktik birliklar ham mavjud bo'lib, ularning tekshirilishi tilshunoslikning lingvopoetika tarmog'i taraqqiyoti uchun muhim ma'lumotlar taqdim etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

- Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русских, узбекских и казахских языков): Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 50 с.;
- Jo'rayeva B. Maqollarning lisoniy mavqeyi va ma'noviy -uslubiy qo'llanilishi: Filol.fan.nomz... diss. – Samarqand, 2006. – 149 b.
- O'zbek xalq maqollari. – Toshkent, 1987. – B.27-30.
- Sarimsoqov B. "Balandparvoz so'zlar". – Toshkent, 1986. – B.38.
- Shomaqsudov Sh. ,Shoraxmedov Sh. Ma'nolar maxzani. – Toshkent, 2001. – B.43
- Турдиалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоетик хусусиятлари. Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – Б.43.